



# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

3




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar oyida, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar oyida)





**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 1 226 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 204 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 179 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 15 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 53,4 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 21 932 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 172 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 169 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 889 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 297 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 297 taga yoki 63,9 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra 295 tani tashkil etib, ulardan 287 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar oyida viloyatimizda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	55	39	16
Qozog'iston Respublikasi	14	8	6
Xitoy Xalq Respublikasi	53	29	24
Qirg'iz Respublikasi	10	8	2
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	40	15	25
Hindiston Respublikasi	13	5	8
Janubiy Koreya Respublikasi	30	22	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	287	178	109
Namangan shahri	94	55	39
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	28	20	8
Namangan	18	16	2
Norin	12	7	5
Pop	28	18	10
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	19	16	3
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	26	15	11
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	11	6	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 94 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 32,7 %), Kosonsoy va Pop 28 tadan (9,7 %), Chortoq 26 ta (9,0 %), Chust 20 ta (7,0 %), Uychi 19 ta (6,6%) hamda Namangan 18 ta (6,3 %) dan tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (32,4 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,8 %), Pop (6,5 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Uchqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (6,1 %), Chortoq (6,0 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,0 %) hamda Mingbuloq (4,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar oyida, birlikda)

2022- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (34,5 %), Chust (9,7 %), Chortoq (9,1 %), Uychi (7,2 %), Uchqo'rg'on (6,9 %), To'raqo'rg'on (6,6 %), Yangiqo'rg'on (5,5 %), Namangan, Pop (5,0 % dan), Kosonsoy (6,0 %), Norin (3,9 %), Mingbuloq hamda Kosonsoy (3,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,3 %), Uychi (7,4 %), Pop va Chortoq (6,7 % dan ), Namangan (6,4 %), Kosonsoy (6,3 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chust (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,2 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,8 %) tumanlari hissasiga tegishli.

# Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2022- yilning yanvar oyida, birlikda)



2022- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (46,3 %), Namangan tumani va Namangan shahri (14,3 % dan), Chust (7,1 %), Uchqo'g'on, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Uychi, Norin (3,6 % dan), tumanlari hissasiga tegishli. Mingbuloq, Pop hamda Chortoq tumanlarida esa oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.